

Kontrast (bir-biriga zid) ranglar. Sabzavot, rezavor va mevalar chizamiz




Atrofga e'tibor bering. Ranglar yorqin, och, iliq yoki sovuq bo'lishi mumkin. Ba'zan ranglar bir-biridan keskin farq qiladi. Bunday ranglar **kontrast (bir-biriga zid)** ranglar deb ataladi.



Bugun siz meva, sabzavot va rezavorlar rasmini chizasiz hamda rasmingiz yorqin va chiroyli chiqishi uchun ularni **bir-biriga zid ranglar bilan** bo'yaysiz.

Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qiladigan va yonma-yon turganda yaqqol ko'zga tashlanadigan ranglardir. Bunday ranglar yonma-yon kelganda, rasm juda yorqin bo'lib ko'rinadi.




Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, oddiy qalam, o'chirg'ich, guash, mo'yqalam, suv, qog'oz sochiq.

Agar bir-biriga zid bo'lgan ranglarni yonma-
yon qo'ysangiz, ular **yanada yorqinroq** bo'ladi.
Rassomlar o'z asarlarini **jozibali** va **ifodali**
ko'rsatish uchun shu usuldan foydalanishadi.



1



Varaqni **9 ta katakka** bo'ling.
Har bir katakka **meva**,
sabzavot yoki **rezavorlar**
rasmini chizing.

2



Fon va predmetlar uchun **bir-
biriga zid ranglar** tanlang.
Ularni oxirigacha bo'yab
chiqing.

3

